Maggie Chen va Christian Volpe Martincus raqamli texnologiyalarning xalqaro savdo va investitsiya jarayonlariga ta'sirini o'rganib, elektron platformalar, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, blokcheyn va boshqa raqamli vositalar nafaqat biznes-modellarni, balki davlatning savdo va investitsiya siyosatini amalga oshirish usullarini ham o'zgartirayotganini ta'kidlaydilar. Mualliflar raqamli vositalar firmalarning axborot izlash, bozorlarga kirish va investitsiya qarorlarini qabul qilish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini ko'rsatib beradilar.



[1]

Investitsiyalarni jalb qilishni yengillashtirish va “yagona darcha” mexanizmlarini shakllantirish masalalari OECD tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. OECD yondashuviga ko‘ra, “one-stop shop” tizimining samaradorligi uning faqat investor uchun yagona aloqa nuqtasi bo‘lishi bilan emas, balki tegishli vazirlik va idoralar o‘rtasidagi real muvofiqlashtirish, vakolatlarni aniq taqsimlash va raqamli xizmatlarni integratsiya qilish darajasi bilan belgilanadi.[2]

O‘zbekistonga bag‘ishlangan OECDning zamonaviy tadqiqotlarida ham investitsiyalarni rag‘batlantirish va ularga ko‘maklashish tizimini raqamlashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, O‘zbekistondagi “Single Window” raqamli platformasining 17 ta davlat xizmatlari portali bilan integratsiya qilingani, investorlarga ro‘yxatdan o‘tish, loyihalarni taqdim etish, litsenziya va operatsion tartib-taomillarga kirish imkoniyati berishi qayd etilgan. OECD ushbu platformani yanada rivojlantirish uchun ko‘p tilli interfeys, kengaytirilgan investitsiya loyihalari bazasi va milliy raqamli tizimlar bilan o‘zaro ma‘lumot almashinuvini kuchaytirishni tavsiya etadi.[3]

UNCTAD tadqiqotlarida raqamli investitsiyalarni yengillashtirish alohida institutsional yo‘nalish sifatida baholanadi. 2024-yilgi World Investment Reportda biznes va investorlarga xizmat ko‘rsatish tartib-taomillari ko‘p hollarda birinchi navbatda raqamlashtiriladigan davlat xizmatlari ekanligi, axborot portallari va onlayn “yagona darcha” tizimlari esa aksariyat mamlakatlarda keng tarqalgani ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, UNCTAD bunday tizimlarning samaradorligi ma‘lumotlarning to‘liqligi, platformalarning barqaror ishlashi va haqiqiy idoralararo integratsiya darajasiga bog‘liqligini ta‘kidlaydi.[4]

Jahon banki tadqiqotlarida ham investitsiyalarni raqamlashtirishga bosqichma-bosqich yondashuv taklif etiladi. Unga ko‘ra, dastlab barcha ruxsat berish va tartibga solish choralari haqida ma‘lumot jamlangan yagona axborot portali tashkil etilishi, keyinchalik esa onlayn ariza berish, elektron hujjat aylanishi va investitsiya ruxsatlarini masofadan ko‘rib chiqish imkoniyatlarini qamrab olgan to‘liq tranzaksion tizimga o‘tish maqsadga muvofiq.[5]

O‘zbekiston sharoitida mazkur muammoni tadqiq etgan zamonaviy mualliflardan Sanjar Kuldoshev to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni raqamli va barqaror boshqarish masalalarini o‘rgangan. Uning tadqiqotida raqamli boshqaruv, elektron hukumat va ESG tamoyillarini investitsiya muhiti bilan uyg‘unlashtirish xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularning uzoq muddatli samaradorligini oshirish omillari sifatida qaraladi.[6]

Shuningdek, xalqaro amaliyotda raqamli “yagona darcha” tizimi nafaqat dastlabki investitsiya qarorlarini qo‘llab-quvvatlash, balki postinvestitsion xizmatlarni ham qamrab olishi kerakligi ta‘kidlanmoqda. Masalan, OECD Malayziyadagi Digital Investment Office tajribasini raqamli iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investorlarga loyihaning oldingi hamda keyingi bosqichlarida xizmat ko‘rsatuvchi yagona raqamli platforma sifatida ko‘rsatadi.[7]

Mavjud tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar va “yagona darcha” tamoyili investitsiya jarayonida axborot asimmetriyasini kamaytirish, ma‘muriy xarajatlarni qisqartirish, davlat organlari o‘rtasidagi muvofiqlashuvni kuchaytirish va investorlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq O‘zbekiston sharoitida raqamli investitsiya platformalarining xorijiy investitsiyalar hajmi, loyihalarni ko‘rib chiqish muddati, ma‘muriy xarajatlar, investorlar qoniqishi va postinvestitsion xizmatlar samaradorligiga ta‘sirini kompleks baholash masalalari hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur maqolada raqamli texnologiyalar va “yagona darcha” tamoyilini xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi sifatida baholashga alohida e‘tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida raqamli texnologiyalar va “yagona darcha” tamoyilining samaradorligini baholash maqsadida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini OECD, UNCTAD, Jahon banki materiallari, shuningdek, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarning raqamli investitsiya xizmatlariga oid rasmiy ma‘lumotlari tashkil etdi.

Qiyosiy tahlil doirasida O‘zbekiston tajribasi Singapur, Estoniya, Ruanda va Malayziya amaliyoti bilan solishtirildi. Bunda raqamli platformalarning davlat xizmatlari bilan integratsiya darajasi, biznes va investitsiya loyihalarini onlayn ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyatlari, ruxsatnoma va litsenziyalarni olish tezligi, elektron hujjat aylanishi, postinvestitsion xizmatlar hamda investorlarga xizmat ko‘rsatishning to‘liq “end-to-end” modeli asosiy baholash mezonlari sifatida tanlandi.

Shuningdek, raqamli “yagona darcha” tizimi samaradorligini baholash uchun investitsiya loyihagini ro‘yxatdan o‘tkazish muddati, ruxsatnomalarni olish vaqti, elektron tarzda yakunlangan xizmatlar ulushi, takroriy ma‘lumot talab qilish holatlari, idoralararo integratsiya darajasi, postinvestitsion xizmatlar ulushi va investorlar qoniqishi kabi ko‘rsatkichlar tizimlashtirildi.

Metodologik yondashuv raqamli texnologiyalarni xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning alohida texnik

vositasi sifatida emas, balki investitsiya muhitining institutsional sifati, ma'muriy xarajatlar va investorlarga xizmat ko'rsatish samaradorligiga ta'sir etuvchi kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida raqamli texnologiyalar va "yagona darcha" tamoyilining ahamiyati so'nggi yillarda keskin oshib bormoqda. Bu, avvalo, investorning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlaridagi vaqt va tranzaksion xarajatlarni kamaytirish, ma'lumotlar shaffofligini oshirish, litsenziya va ruxsat berish jarayonlarini soddalashtirish hamda investitsiya loyihalarini real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyati bilan bog'liq.

UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, raqamli investitsiya faoliyatini yengillashtirish vositalari, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda tez sur'atlar bilan kengaymoqda. 2016-yildan 2024-yilgacha rivojlanayotgan mamlakatlarda onlayn "yagona darcha" tizimiga ega davlatlar soni 13 tadan 67 taga, rivojlangan iqtisodiyotlarda esa 12 tadan 28 taga ko'paygan. Shuningdek, biznes va investorlar uchun axborot portallari soni rivojlanayotgan davlatlarda 82 tadan 124 taga, rivojlangan mamlakatlarda esa 43 tadan 48 taga oshgan (1-jadval).

1-jadval.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli investitsiya xizmatlarining rivojlanishi¹

Ko'rsatkich	Rivojlanayotgan mamlakatlar	Rivojlangan mamlakatlar
Onlayn "yagona darcha" tizimi, 2016-yil	13 ta	12 ta
Onlayn "yagona darcha" tizimi, 2024-yil	67 ta	28 ta
O'sish, marta	5,2-marta	2,3-marta
Biznes va investitsiya axborot portallari, boshlang'ich davr	82 ta	43 ta
Biznes va investitsiya axborot portallari, 2024-yil	124 ta	48 ta
O'sish	+42 ta	+5 ta

Jadval ma'lumotlari raqamli investitsiya infratuzilmasini kengaytirish sur'atlari rivojlanayotgan mamlakatlarda ancha yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu holat mazkur davlatlarda ma'muriy to'siqlarni kamaytirish va investitsion muhitning institutsional sifati tezkor yaxshilash uchun raqamli texnologiyalar muhim "quvib yetish" mexanizmiga aylanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlarda raqamli xizmatlar soni nisbatan sekin o'smoqda, chunki ularning katta qismida elektron davlat xizmatlari va biznes reyestrlari oldindan yuqori darajada shakllangan.

UNCTADning 2022-yil holati bo'yicha tahlili ham biznesga oid davlat xizmatlari raqamli hukumatning eng keng tarqalgan yo'nalishlaridan ekanini ko'rsatadi. 193 davlat orasida biznesni onlayn ro'yxatdan o'tkazish 176 ta mamlakatda, biznes litsenziyalarini bo'yicha xizmatlar 167 ta, soliq hisobotlarini elektron topshirish 152 ta, qurilish ruxsatnomalari 145 ta va yer huquqini ro'yxatdan o'tkazish xizmatlari 138 ta mamlakatda mavjud bo'lgan (2-jadval).

2-jadval.

Dunyo mamlakatlarida biznesga oid asosiy raqamli davlat xizmatlarining tarqalishi²

Raqamli xizmat turi	Xizmat mavjud bo'lgan davlatlar soni
Biznesni onlayn ro'yxatdan o'tkazish	176
Biznes litsenziyalarini olish	167
Biznes soliq hisobotlarini topshirish	152
Elektr energiyasi to'lovlari	149
Qurilish ruxsatnomalarini olish	145
QQS hisobotlarini topshirish	141
Yer huquqini ro'yxatdan o'tkazish	138
Suv ta'minoti to'lovlari	136
Ekologik ruxsatnomalarni olish	134

1 Manba: Muallif ishlanmasi.

2 Manba: Muallif ishlanmasi.



Ushbu ma'lumotlar raqamli investitsiya muhitini shakllantirish faqat investitsiya agentligi portali bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. Investor uchun biznesni ro'yxatdan o'tkazishdan tortib soliq, litsenziya, yer, qurilish va ekologik ruxsatnomalargacha bo'lgan butun jarayonning raqamlashtirilishi muhim. Demak, "yagona darcha" tamoyilining haqiqiy samaradorligi turli idoralar xizmatlarini yagona texnologik va ma'lumotlar muhitiga integratsiya qilish darajasi bilan belgilanadi.

O'zbekistonda ham xorijiy investorlarga xizmat ko'rsatishni raqamlashtirish bo'yicha sezilarli institutsional o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatdagi Single Window raqamli platformasi 17 ta davlat xizmatlari portali bilan integratsiya qilingan bo'lib, investorlarga ro'yxatdan o'tish, investitsiya loyihasini taqdim etish, litsenziyalash va operatsion tartib-taomillarga kirish imkoniyatini beradi. Keyingi bosqichda platformani ko'p tilli qilish, investitsiya loyihalari bazasini kengaytirish va boshqa milliy raqamli tizimlar bilan o'zaro ma'lumot almashinuvini kuchaytirish rejalashtirilgan.

Bu holat O'zbekistonning investitsiya xizmatlarini oddiy axborot portali shaklidan to'liq tranzaksion va integratsiyalashgan raqamli muhitga o'tkazish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. Biroq xalqaro tajriba bilan taqqoslaganda, raqamli platformaning samaradorligini baholashda xizmatlar sonidan tashqari, ularni olish muddati, investorning bir marta ma'lumot kiritish tamoyili, idoralararo avtomatik ma'lumot almashinuvi va postinvestitsion xizmatlar qamrovi ham asosiy mezonlar sifatida qaralishi lozim.

Singapur raqamli biznes va investitsiya xizmatlarini integratsiya qilish bo'yicha eng rivojlangan modellardan biriga ega. Singapore Economic Development Board ma'lumotlariga ko'ra, kompaniyani ro'yxatdan o'tkazish Bizfile platformasi orqali onlayn amalga oshiriladi va tegishli holatlarda ro'yxatdan o'tish jarayoni taxminan 15 daqiqa davom etishi mumkin. Bundan tashqari, EDB investorlar uchun davlat qo'llab-quvvatlash choralari va biznesni tashkil etish bo'yicha raqamli axborot xizmatlarini taklif qiladi.

Estoniya esa davlat va biznes o'rtasidagi raqamli munosabatlarning yuqori darajada integratsiyalashgan modeli bilan ajralib turadi. Mamlakatning e-Business Register tizimi kompaniyani tashkil etish, ma'lumotlarni o'zgartirish, hujjatlar va yillik hisobotlarni elektron shaklda topshirish imkonini beradi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, yangi xususiy kompaniyalarning 85 foizdan ortig'i mazkur portal orqali ro'yxatdan o'tkaziladi, yillik hisobotlarning qariyb 99 foizi elektron shaklda taqdim etiladi (3-jadval).

3-jadval.

O'zbekiston, Singapur va Estoniyada raqamli investitsiya va biznes xizmatlarining qiyosiy tavsifi³

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Singapur	Estoniya
Asosiy raqamli mexanizm	Single Window	Bizfile / EDB raqamli xizmatlari	e-Business Register
Davlat tizimlari bilan integratsiya	17 ta davlat xizmatlari portali	Yuqori darajada integratsiyalashgan raqamli davlat xizmatlari	Yagona elektron biznes reestri
Kompaniyani onlayn ro'yxatdan o'tkazish	Mavjud	Mavjud	Mavjud
Ro'yxatdan o'tish tezligi bo'yicha ochiq ko'rsatkich	Bir xil yagona ko'rsatkich keltirilmagan	Ayrim holatlarda 15 daqiqa	Elektron shaklda tezkor
Elektron hisobot va hujjatlar	Integratsiya bosqichida	Keng qo'llaniladi	Yillik hisobotlarning qariyb 99% elektron
Postinvestitsion raqamli xizmatlar	Rivojlantirilmoqda	Mavjud	Biznesning butun hayot siklini qamrab oladi
Asosiy ustunlik	Integratsiya ko'lamining kengayishi	Jarayon tezligi va biznesga yo'naltirilganlik	To'liq raqamli ekotizim

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda "yagona darcha" mexanizmining institutsional asoslari shakllangan bo'lsa-da, rivojlangan davlatlar tajribasida raqamlashtirish nafaqat investitsiya loyihasini ro'yxatga olish, balki korxonaning butun hayot siklini qamrab oladi. Singapurda asosiy ustunlik — tezkorlik va investorga yo'naltirilgan xizmatlar, Estoniyada esa davlat ma'lumotlar bazalarining chuqur integratsiyasi va hujjat aylanishining deyarli to'liq elektronlashtirilganidir.

Ruanda rivojlanayotgan mamlakatlar orasida "yagona darcha" tamoyilini samarali joriy etgan davlatlardan biri hisoblanadi. Rwanda Development Board qoshidagi One Stop Centre investorlarni ro'yxatdan o'tkazish, ekologik baholash, imtiyozlar, viza va ruxsatnomalar bilan bog'liq xizmatlarni bir nuqtada taqdim etadi. Investitsiya sertifikati uchun ariza onlayn topshirilishi mumkin va to'liq hujjatlar taqdim etilganda sertifikatni olish muddati ko'pi bilan 2 ish kunini tashkil etadi. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish esa rasmiy ma'lumotlarga

ko'ra, 6 soat ichida amalga oshirilishi mumkin.

Malayziyada raqamli investitsiyalarni jalb qilish maqsadida Digital Investment Office (DIO) tashkil etilgan. U MIDA va MDEC o'rtasidagi hamkorlik platformasi bo'lib, raqamli investitsiyalar bo'yicha "yagona darcha" vazifasini bajaradi. DIO investorlarga loyihagacha bo'lgan bosqichdan tortib loyihani amalga oshirishdan keyingi xizmatlarga kompleks ko'mak ko'rsatadi (4-jadval).

4-jadval.

O'zbekiston, Ruanda va Malayziyada "yagona darcha" mexanizmlarining qiyosiy tahlili⁴

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Ruanda	Malayziya
Institutsional platforma	Single Window	RDB One Stop Centre	Digital Investment Office
Onlayn investitsiya arizasi	Mavjud	Mavjud	Mavjud
Litsenziya va ruxsat xizmatlari	17 ta davlat portali bilan integratsiya	Investitsiya, EIA, viza, imtiyozlar va boshqa xizmatlar	Raqamli investitsiyalarga oid kompleks xizmatlar
Investitsiya sertifikat muddati	Yagona ochiq standart ko'rsatkich keltirilmagan	2 ish kunigacha	Loyihaga qarab
Biznesni ro'yxatdan o'tkazish	Elektron xizmatlar mavjud	6 soatgacha	Raqamli xizmatlar mavjud
Postinvestitsion xizmatlar	Rivojlantirish bosqichida	Aftercare xizmatlari mavjud	Pre- va post-investment xizmatlari mavjud
Asosiy xususiyat	Idoralararo integratsiya	Tezkor xizmat va yagona institutsional markaz	Raqamli investitsiyalarga ixtisoslashgan "end-to-end" model

Ruanda tajribasi O'zbekiston uchun ayniqsa qiziqarli, chunki u rivojlanayotgan davlat sharoitida raqamli "yagona darcha"ni faqat axborot portali emas, balki investorga aniq natija — sertifikat, ruxsatnoma va postinvestitsion xizmat — beruvchi amaliy mexanizmga aylantirgan. Malayziya modeli esa raqamli iqtisodiyot va yuqori texnologiyali investitsiyalarga maxsus ixtisoslashgan xizmat platformasini shakllantirish imkoniyatini namoyon etadi.

Umumlashtirilgan tahlil raqamli investitsiya xizmatlarining rivojlanishini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkinligini ko'rsatadi. Birinchi bosqich — investor uchun normativ-huquqiy va protseduralar to'g'risida axborot portali yaratish. Ikkinchi bosqich — ariza, ro'yxatdan o'tish, litsenziya va ruxsat berish xizmatlarini onlayn shaklga o'tkazish. Uchinchi, eng yuqori bosqich esa davlat axborot tizimlarining integratsiyasi, ma'lumotni bir marta taqdim etish, avtomatik ma'lumot almashinuvi va investitsiya loyahasining butun hayot siklini qamrab oluvchi "end-to-end" raqamli xizmat modelini shakllantirishdan iborat.

Xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan O'zbekiston ikkinchi bosqichdan uchinchi bosqichga o'tish jarayonida deb baholanishi mumkin. 17 ta davlat xizmatlari portali bilan integratsiya muhim natija bo'lsa-da, keyingi ustuvor vazifa xizmatlarning son ko'rsatkichidan ularning sifati va natijadorligiga o'tish bo'lishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli "yagona darcha" samaradorligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni joriy etish maqsadga muvofiq: investitsiya loyhasini ro'yxatga olishning o'rtacha muddati; ruxsatnoma va litsenziyalarni olish muddati; bir loyiha bo'yicha talab qilinadigan hujjatlar soni; investor tomonidan bir xil ma'lumotni qayta taqdim etish holatlari; elektron shaklda yakunlangan xizmatlar ulushi; investor murojaatlarini hal qilish muddati; postinvestitsion xizmatlardan foydalanish darajasi; investorlar qoniqishi indeksi (5-jadval).

5-jadval.

O'zbekistonda raqamli "yagona darcha" samaradorligini baholash uchun taklif etilayotgan ko'rsatkichlar⁵

Ko'rsatkich	Mazmuni	Kutilayotgan yo'nalish
Loyihani ro'yxatdan o'tkazish muddati	Arizadan qarorgacha bo'lgan vaqt	Kamayishi
Ruxsatnomalarni olish muddati	Barcha tegishli idoralar bo'yicha o'rtacha vaqt	Kamayishi
Elektron yakunlangan xizmatlar ulushi	To'liq onlayn amalga oshirilgan xizmatlar	Oshishi
Takroriy ma'lumot so'rash holatlari	Bir ma'lumotni bir necha idora talab qilishi	Kamayishi
Idoralararo integratsiya darajasi	O'zaro ma'lumot almashuvchi davlat tizimlari	Oshishi

4 Manba: Muallif ishlanmasi.

5 Manba: Muallif ishlanmasi.



Postinvestitsion xizmatlar ulushi	Loyiha amalga oshgandan keyingi raqamli xizmatlar	Oshishi
Investorlar qoniqishi	Raqamli xizmat sifatiga berilgan baholar	Oshishi
Muammolarni hal qilish muddati	Investor murojaatiga javob berish va yechim topish	Kamayishi

Mazkur ko'rsatkichlarni platforma analitikasiga kiritish "yagona darcha"ni ma'muriy xizmat ko'rsatish vositasidan investitsiya siyosatining natijadorligini baholovchi boshqaruv instrumentiga aylantirish imkonini beradi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi raqamli texnologiyalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mustaqil rag'bat emas, balki investitsion muhit sifatini oshiruvchi institutsional mexanizm ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun eng maqbul yo'nalish Singapurning tezkor xizmat ko'rsatish, Estoniyaning ma'lumotlar integratsiyasi, Ruandaning natijaga yo'naltirilgan One Stop Centre hamda Malayziyaning pre- va post-investment xizmatlarini yagona raqamli muhitda birlashtirish tajribalarini milliy sharoitga moslashtirishdan iborat. Bu xorijiy investor uchun ma'muriy xarajat va vaqtni kamaytirish, davlat qarorlarining shaffofligini oshirish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish samaradorligini kuchaytirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda raqamli texnologiyalar va "yagona darcha" tamoyili investitsiya muhitini yaxshilashning muhim institutsional vositasiga aylanmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasida raqamli xizmatlar investorning butun hayot siklini — biznesni ro'yxatdan o'tkazish, litsenziya va ruxsatnomalarni olish, soliq va hisobotlarni topshirish, investitsiya loyihalarini monitoring qilish hamda postinvestitsion xizmatlarni qamrab oladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa raqamlashtirish, birinchi navbatda, ma'muriy to'siqlarni qisqartirish, davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashuvni kuchaytirish va investorlarga xizmat ko'rsatish tezligini oshirish vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha muayyan institutsional baza shakllangan va "yagona darcha" mexanizmlari bosqichma-bosqich kengaymoqda. Biroq xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, keyingi bosqichda raqamli platformalar soni yoki ularga ulangan xizmatlar miqdorini oshirishdan ko'ra, ularning o'zaro integratsiyasi, xizmatlarning to'liq elektron shaklda yakunlanishi, investor uchun vaqt va xarajatlarni qisqartirish hamda natijadorlikni aniq o'lchash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston uchun quyidagi 4 ta ustuvor taklifni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Investitsiya jarayonlari uchun to'liq integratsiyalashgan "yagona raqamli darcha" platformasini shakllantirish. Platforma investitsiya loyahasini taqdim etishdan boshlab biznesni ro'yxatdan o'tkazish, yer ajratish, qurilish, ekologik xulosa, litsenziya, bojxona va soliq xizmatlarigacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab olishi lozim. Bunda "bir marta ma'lumot kiritish" tamoyili joriy qilinib, investordan davlat organlarida mavjud ma'lumotlarni qayta-qayta talab qilish amaliyoti bartaraf etilishi zarur.

Raqamli "yagona darcha" samaradorligini aniq KPllar asosida baholash tizimini joriy etish. Xizmatlar soni bilan cheklanib qolmasdan, investitsiya loyahasini ko'rib chiqish muddati, ruxsatnoma olish vaqti, elektron tarzda yakunlangan xizmatlar ulushi, takroriy hujjat talab qilish holatlari, investor murojaatlarini hal qilish tezligi va investorlar qoniqishi kabi ko'rsatkichlarni muntazam e'lon qilib borish maqsadga muvofiq.

Postinvestitsion raqamli xizmatlar tizimini kuchaytirish. Xorijiy investorga faqat loyiha kirib kelgungacha emas, balki ishga tushirilgandan keyin ham yagona raqamli muhit orqali xizmat ko'rsatish zarur. Muammolarni tezkor hal qilish, kengaytirish investitsiyalarini qo'llab-quvvatlash, eksport, infratuzilma, kadrlar va mahalliy kooperatsiya masalalari bo'yicha aftercare xizmatlarini yo'lga qo'yish investorlarning qayta investitsiya qilish ehtimolini oshiradi.

Xorijiy investorlar uchun ko'p tilli, shaffof va prognozli raqamli axborot muhitini yaratish. Yagona platformada o'zbek, rus va ingliz tillarida amaldagi imtiyozlar, investitsiya tartiblari, hudud va tarmoqlar salohiyati, tayyor investitsiya loyihalari, infratuzilma, yer maydonlari va ruxsat berish talablari haqida yangilanib boriladigan ma'lumotlar joylashtirilishi lozim. Bu axborot asimmetriyasini kamaytiradi va investorning dastlabki qaror qabul qilish xarajatlarini pasaytiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonda raqamli texnologiyalar va "yagona darcha" tamoyilini rivojlantirishning asosiy maqsadi davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazishning o'zi emas, balki investor uchun vaqt, xarajat va noaniqlikni kamaytirish, davlat organlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish hamda investitsiya loyihalarining amalga oshirish samaradorligini oshirishdan iborat bo'lishi lozim. Aynan shunday yondashuv raqamli investitsiya muhitining sifatini oshirib, O'zbekistonning xorijiy kapital uchun raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Chen, M., Volpe Martincus, C. Digital Technologies and Globalization: A Survey of Research and Policy Applications. Inter-American Development Bank, 2022. DOI: 10.18235/0004117.
2. OECD. OECD Investment Policy Reviews: Myanmar 2020. Paris: OECD Publishing, 2020. Бўлим: "One-stop shop inter-ministerial coordination". Манба
3. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2025. Бўлим: "Enhancing Uzbekistan's investment promotion and facilitation framework".
4. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government. Geneva: United Nations, 2024.
5. World Bank. Digitalizing Investment Facilitation. Investment Facilitation for Development analytical materials, 2025.
6. Kuldoshev, S.U. Directions for the Digital and Sustainable Management of Foreign Direct Investments in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2026. DOI: 10.51699/cajitm.v7i3.1265. OECD. FDI Qualities Review of Viet Nam: Leveraging FDI in Support of Digital Transformation. Paris: OECD Publishing, 2026. Бўлим: "Investment facilitation to advance digital outcomes".

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100